



**БЕШИНЧИ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ
ҲАЙВОН ВА ПАРРАНДАЛАРДА ЎТА
ХАВФЛИ КАСАЛЛИКЛАРНИНГ
ТАРҚАЛИШИ ВА УЛАРГА ҚАРШИ
КУРАШ ЧОРАЛАРИ**

Конференция маърузалари матнининг тўплами

Самарқанд – 2016 й.

**ПЯТАЯ МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
РАСПРОСТРАНЕНИЕ И МЕРЫ БОРЬБЫ
ОСОБО ОПАСНЫХ БОЛЕЗНЕЙ
ЖИВОТНЫХ И ПТИЦ**

Сборник материалов конференции

Самарқанд – 2016 г.

**THE FIFTH INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE
DISTRIBUTION AND STRUGGLE
ESPECIALLY DANGEROUS ILLNESSES OF
ANIMALS AND BIRDS**

Collection of papers of conference

Samarkand – 2016 y.

Хамдамов Х.А., Куватов Б.Х., Сатторов У.К., Хафизова Ф.Э. Изучение возможности стимуляции образования агглютинирующих антител к бруцеллам при искусственной гиперсенсibilизации организма.....	311
Хатамов А.Х. Истиклол ҳўжалигида иқлимлаштирилаётган қорақалпоқ сур қорақўл қўзиларининг айрим барра тери хусусиятлари.....	313
Холиков А., Қулдошев Ғ., Жабборов. Ғ. Сигирлар кўпайиш тизимининг патологияларида янги витаминли препаратларни қўллаш самарадорлиги.....	315
Худжамшукуров А.Н., Давлатов Р.Б. Товук эймериозига қарши эймериостатикларнинг самардорлигини ўрганиш.....	317
Худоёрова Ф.А. Қорамоллар некробактериозининг олдини олиш ва даволашда такомиллаштирилган ванналарни қўллаш.....	320
Хужамов Ж., Нарбаева М.К., Кахаров А.К. Голштин ва голштинлашган сигирларнинг айрим физиологик кўрсаткичлари.....	321
Хушвақтов А.А., Шаптакон Э.С., Каримов Ш.А., Кахаров А.К. Чорва молларини турлари кесимида учрайдиган айрим генетик нуқсон ва майиб-мажрухликларнинг таҳлили.....	324
Шакарбаев У.А., Акрамова Ф.Д., Голованов В.И. Фауна церкарий трематод моллюсков (моллюска) водоемов Северо-востока Узбекистана.....	325
Шарипов О. М. Яфаров А.К. Безверхов А.П. Киселёва Л. М. Обеззараживание современными методами производственных помещений птицеферм и птицефабрик.....	327
Шералиева И.Д. Пастереллэз ва Диплококкоз касалликларининг олдини олиш самарадорлиги.....	329
Шомуротов Ш.А., Мамадуллаев Г.Х., Тураев А.С. Исследование бактериостатической активности полимерных комплексов полигалактуроновой кислоты с противотуберкулезными препаратами.....	331
Шопулатова З.Ж., Рўзикулова У.Х. Кавшовчи ҳайвонлар пастереллэзини даволаш, профилактика ва қарши кураш чора-тадбирларини такомиллаштириш.....	334
Элмуродов Б.А. Аралаш бактериал касалликларини даволаш самарадорлиги.....	336
Элмуродов Б.А., Набиева Н.А. Қуёнлар пастереллэз касаллигининг олдини олиш чора-тадбирлари.....	337
Элмуродов Б.А., Наврузов Н., Набиева Н., Паррандаларнинг аралаш юқумли бактериал касалликлари.....	339
Эримов С. Тайлоқова М., Базарбаева А. <i>Dicrocoelium lanceatum</i> Stiles et Hassall, 1896 трематодасининг муҳим биологик хусусияти ва тарқалиши.....	342
Эшбуриев С.Б., Рахмонов Х.Н. Сигирларда витамин-минераллар алмашинуви бузилишларининг патогенези.....	344
Эшқувватов Х.Х., Исаев М.Т., Ниязов Х.Б. Ферментатив оксил гидролизатинининг бузоқлар қонининг морфологик кўрсаткичларига таъсири.....	347
Юлчиев Ж.Б., Нарзиев Б.Д. Самақанд шаҳрида итлар орасида ўсмаларнинг тарқалиши, уларнинг ёшга ва жинсга боғлиқ хусусиятлари ва комплекс усулда даволаш.....	349
Ботиров Х. Ф., Бектемиров В. М. Қиш даври экинларининг иқлим захираси.....	353
Ботиров Х. Ф., Жабборов Ш. Илдиз мевалар экилиши тарихидан.....	354
Ботиров Х. Ф., Жабборов Ш. Ош лавлагидан қўчатсиз уруғ етиштириш.....	355
Ботиров Х. Ф., Жўрақулов Ғ. Лавлаги ва сабзи уруғояларини чилпиш ва чанглатиш.....	356
Ботиров Х. Ф., Жўрақулов Ғ.Э. Зироатчиликда экинларнинг био-экологик салоҳияти.....	357
Ботиров Х. Ф., Қораев Ғ.Р. Суғориладиган зироатчиликда тупроқ ҳимояси.....	358
Ботиров Х. Ф., Луков М. Илдиз мевалар уруғини қишда ўстириш.....	359

KAVSHOVCHI HAYVONLAR PASTERELLYOZINI DAVOLASH, PROFILAKTIKA VA QARSHI KURASH CHORA - TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shapulatova Z.J., Ruzikulova U.X.,
Samarqand qishloq xo'jalik instituti

Kirish. Pasterellyoz (gemorragik septitsemiya) - ko'pchilik qishloq xo'jalik, yovvoyi hayvonlar, parranda hamda odamlarning infeksiyon kasalligi bo'lib, septik holatlar va yuqori nafas yo'llari, ichak shilliq qavatlarida yallig'lanish jarayonlari, o'pka va plevraning yallig'lanishi, shishlar bilan xarakterlanadi. Undan keladigan iqtisodiy zarar juda katta bo'lib, hayvonlarning o'lishi, kasallarini davolash va kasallikka qarshi kurashish tadbirlariga sarflanadigan xarajatlardan iborat. Kasallanib tuzalgan hayvonlar o'sish va rivojlanishdan ortda qoladi hamda pasterella tashuvchi bo'lib qoladi.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Pasterellyoz kasalligini davolash, profilaktika va qarshi kurash chora tadbirlarini Samarqand viloyati xo'jaliklarida o'rganildi. Pasterellyozni davolash uchun maxsus giperimmun zardoblar, antibiotiklar samarasi o'rganildi. Kasallik chiqqan xo'jaliklarda o'tkaziladigan umumiy va maxsus oldini olish va qarshi kurash chora tadbirlari o'rganildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Pasterellyozni davolash uchun maxsus giperimmun zardob qo'llash, ayniqsa kasallikning boshida yaxshi natija beradi. Antibiotiklar ishlatishning ham samaradorligi yaxshi. Qator sulfanilamid preparatlarini qo'llash ham maqsadga muvofiq.

Kasallik vaqtida to'g'ri diagnoz qo'yib, o'z vaqtida, kechiktirmay davolash hamma vaqt yaxshi natijalar beradi. Maxsus pasterellyozga qarshi immunnoglobulinlar kasallik juda og'ir kechib hatto giperimmun zardoblar ham ta'sir qilmagan vaqtda hayvonni saqlab qolgan.

Maxsus giperimmun zardoblar kasallikning oldini olish va davolash xususiyatlariga ega. Antibiotiklardan oksitetrasiklin, biomisin, tetrasiklin, streptomitsin, penisillin, polimiksin, monomisin, eritromisin, levomitsetin va sulfanilamid preparatlardan sulfamerazin, sulfametazinar, ta'siri uzaytirilgan. Pasterellalarga antimikrobi preparatlarning ta'sirini o'rganish uchun ajratilgan qo'zg'atuvchi kulturalarini interfloks-100 (enroflosaksin), ditrim (20 % sulfadimezin va 4 % trimetoprim), penstrep-400 larga sezuvchanligi laboratoriya tekshirishlari natijasida aniqlandi va bu antibiotiklarni davolash maqsadida qo'llash juda yaxshi samara beradi. Antibiotiklarni ularni qo'llash haqidagi yo'riqnomada ko'rsatilgan dozada ishlatiladi. Ularni kuniga 3 marta 3-5 kun davomida, ta'siri uzaytirilganlarni esa bir marta yuboriladi. Bundan tashqari simptomatik davolash uchun boshqa simptomatik vositalar ishlatiladi.

Kasallikning oldini olish uchun buzoqlarga zardobni birinchi marta hayotining birinchi soatlarida uvuz suti bilan yoki undan oldin 1kg tirik vaznga 2ml hisobidan ichirilgan. Uch kundan keyin teri ostiga 1kg tirik vazni 1ml hisobidan yuborilgan. Davolash maqsadida esa zardobni 2-3 marta 1-2 sutka interval bilan 1kg massaga 1-2 ml dozada teri ostiga yuborilgan. Og'ir hollarda esa dozaning yarmini mushaklar orasiga yuborilgan. Zardobni antibiotiklar va boshqa vositalar bilan qo'llab davolashda yanada yuqori samaraga erishgan.

Pasterellyozning oldini olishda umumiy va maxsus chora tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Umumiy oldini olish tadbirlaridan hayvonlarni to'liq qiymatli oziqlantirish, ularni saqlash sharoitlarini yaxshilash, veterinariya-sanitariya qoidalariga qattiq rioya qilish, yangi olib kelingan hayvonlarni karantinda ushlab va h.k.lar muhim o'rin tutadi. Kasallik chiqish havfi bo'lganda esa profilaktik vaktsinasiya o'tkazish zarur.

Podani faqat pasterellyozdan sog'lom bo'lgan xo'jalikdan olib kelingan hayvonlar bilan to'ldirish, yangilash mumkin. Podaga shaxsiy uyda boqilayotgan hayvonlarni qo'shish mumkin emas. Fermalarda sanitariya o'tkazgichlari tashkil etilishi, rejali ravishda kemiruvchilarga qarshi kurashish kerak. Ba'zi guruhlarda bir-ikkita pasterellyoz bilan kasallangan hayvonlar chiqib qolsa barcha hayvonlar yil davomida pasterellyozga qarshi emlanadi. Bu xo'jalikka emlanmagan hayvonni kiritish mumkin emas.

Xo'jalikda hayvonlarda pasterellyoz kasalligi aniqlanganda, xo'jalik pasterellyoz bo'yicha nosog'lom deb e'lon qilinadi va chegaralash qo'yiladi. Nosog'lom xo'jalikda, hayvonlarning joyini o'zgartirish, bir-biriga aralashtirib yuborish, xo'jalikka boshqa xo'jalikdan pasterellyozga moyil hayvonni olib kelish yoki xo'jalikdan chiqarish man etiladi.

Nosog'lom guruh hayvonlarni klinik ko'rikdan o'tkazilib, termometriya qilinadi. Kasal va kasallikka gumon qilingan hayvonlar ajratilib alohida molxonada boqiladi.

Kasal va ular bilan kontaktda bo'lgan hamma hayvonlarga giperimmun zardob yoki immunnoglobulin yuboriladi. Bundan tashqari yuqori punktlarda aytib o'tilgan ta'sir doirasi keng, ta'siri uzaytirilgan antibiotik, ximio preparatlar, sulfanilamid preparatlaridan, uning bakteriyaga sezuvchanligi o'rganilib, tanlab ishlatiladi.

Bundan tashqari simptomatik vositalar ham ishlatish mumkin.

Kasal ona qo'ylarning qo'zilarga davolash dozasida giperimmun zardob yuborilib, antibiotikoterapiya o'tkaziladi. Nosog'lom xo'jalikdagi 3 oylikgacha bo'lgan buzoqlarga ham pasterellyozga qarshi giperimmun zardob yuborilib, faqat sog'lom sigirlarning suti ichiriladi. 14 kundan keyin emlash yoshiga yetgan barcha hayvonlar pasterellyozga qarshi ularni qo'llash haqidagi yo'riqnomaga muvofiq emlanadi.

Xo'jalikdagi qolgan barcha hayvonlar pasterellyozga qarshi emlanishi shart.

Dezinfeksiya uchun 10-20 % yangi so'ndirilgan ohak yoki tarkibida 2 % aktiv xlori bor ohak, 2 % o'yuvchi natriy, 3 %-kreoliin, 0,5 %-formaldegid ishlatish mumkin.

Maxsus chora-tadbirlardan kavshovchi hayvonlar organizmida vaksinalar, giperimmun zardoblar qo'llab kasallikka qarshi immunitet sun'iy immunitetni paydo qilish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy sharoitlarda pasterellyoz bilan kasallanib, sog'aygan hayvonlarda tabiiy immunitet paydo bo'ladi. Su'niy immunitetni pasterellaning tirik kuchsizlantirilgan shtammlaridan yoki o'ldirilgan kulturalaridan tayyorlangan vaksinalar yordamida hosil qilish mumkin. Mamlakatimizda oxirgi yillarda quyidagi vaksinalar ularni qo'llash haqidagi yo'riqnomaga muvofiq ravishda ishlatib kelmoqda.

a) yirik shoxli hayvon, qo'y va cho'chqalar pasterellyoziga(gemorragik septisemiya) qarshi presipitinlangan farmol vaksina.

b) Yirik shoxli hayvonlar, buyvollar pasterellyoziga(gemorragik septisemiya) qarshi yarim suyuq formolgidrookisalyuminiyli AzNIVI vaksinasi.

c) Yirik shoxli hayvon, buyvol va qo'ylar pasterellyoziga qarshi emmulgirlangan vaksina.

Vaksinalar hayvon organizmida 6 oy immunitet hosil qiladi.

Xulosa. Pasterellyozni davolash, profilaktika qilish maqsadida har xil usulda ko'pgina giperimmun zardoblar, immunoglobulinlar ishlab chiqilgan. Biopreparatlar bilan birga antibiotiklar, sulfanilamidlarni ishlatish, davolashda yuqori samara beradi.

Pasterellyozning maxsus profilaktika va qarshi kurash chora-tadbirlaridan kavshovchi hayvonlar organizmida vaksinalar, giperimmun zardoblar qo'llab kasallikka qarshi sun'iy immunitetni paydo qilish nihoyatda muhim ahamiyatga egadir.

Annotasiya

Samarqand viloyati xo'jaliklarida kasal hayvonlarni davolash usullari, pasterellyozni umumiy va maxsus profilaktika qilish, xo'jaliklarda kasallikka qarshi kurash chora-tadbirlarini takomillashtirish.

Резюме:

Данная работа посвящена на изучения вопросов лечения, общей и специфической профилактики пастереллеза сельскохозяйственных животных и усовершенствования меры борьбы против этой болезни.

Summary:

This work is devoted to the study of issues of treatment, sheathe and specific prophylaxis of pasteurellosis agricultural animals and improvement of control measures against the disease.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Dorofeyeva S.G. Rol Pasteurell haemolytica v etiologii respiratornix bolezney molodnyaka krupnogo rogatogo skota. // Avtoref.diss.kand.vet.nauk. — M., 1988. — c. 8.
2. Elmurodov B.A., Parmanov J.M., Maxmatkulov M. Qorako'l qo'ylarida pasterellyozning kechishi va epizootologiyasining o'ziga xos xususiyatlari // Veterinariya jurnali — Toshkent, 1999. -№3. — b. 33.
3. Abdalimov S.A., Parmanov J.M., Elmurodov B.A. Qo'ylar pasterellyo zi // Uchinchi Res.II-Amal. konf. ma'r. matnlari to'plami. — Samarqand, 2004 - b. 9.
4. G'aniyev I., Elmurodov B.A. Qo'ylar pasterellyozining kechishi va klinik belgilari. To'rt. ilm. — amal. konf. ma'r. matni to'plami. Samarqand, 2008. 94-96 b.
5. Elmurodov B.A., Navruzov N., Shapulatova Z.J., Ruzikulova U.X. Buzoqlar va qo'zilar kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish haqida. Zooveterinariya jurnali —№5 -12-13bet.2014.